

**YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA
YOSHLARNING BANDLIGINI TA‘MINLASH MASALALARI VA
OILANING O‘RNI**

Odilxo‘jayeva Dilona Odilxo‘ja qiz

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o‘quvchisi

***Annotasiya.** Ushbu maqolada yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish, ta‘lim olish jarayonlarini mustahkamlash va yoshlarning bandligini ta‘minlash jarayonida oila institutining ahamiyatiga oid fikrlar yoritilgan.*

***Аннотация.** В данной статье подчеркивается значение института семьи в процессе повышения правовой культуры среди молодежи, профилактики правонарушений среди молодежи, укрепления воспитательных процессов и обеспечения занятости молодежи.*

***Abstract.** This article emphasizes the importance of the family institution in the process of increasing legal culture among young people, preventing crime among young people, strengthening educational processes and ensuring youth employment.*

***Kalit so‘zlar:** huquq, majburiyat, davlat, jamiyat, oila, tarbiya, ta‘lim, ehtiyoj, ijtimoiy munosabat.*

***Ключевые слова:** право, обязанность, государство, общество, семья, воспитание, образование, потребность, социальное отношение.*

***Key words:** right, duty, state, society, family, upbringing, education, need, social attitude.*

Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o'ta dolzarb masalasi bo'lib kelgan. Hammamizga ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidja yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatning rivojlanishida yoshlarning o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun jamiyatda doimo yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish, ularning huquqiy madaniyatini, ahloqiy qarashlarini shakllantirishda turli islohotlar amalga oshiriladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyov tomonidan 2022-yil 30-iyun kuni "Yangi O'zbekiston" bog'ida Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirdagi nutqida yoshlarga "Men siz, aziz farzandlarimdan bir narsani so'rayman: tinimsiz o'qib, zamonaviy bilimlarni egallashdan, ko'nglingizdagi ezgu maqsadlar sari harakat qilishdan, hech qachon to'xtamang" deb aytib o'tdilar¹.

Ta'kidlash lozimki, yoshlarning uzluksiz ravishda ta'lim olishi, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarni oldini olishda, yoshlarning madaniyatli turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Yoshlarda madaniyat va ularning huquqiy, axloqiy qarashlarini shakllantirishda avvalo ularning dunyoqarashlarida, tafakkurida umuminsoniy qadriyatlar va milliy qadriyatlar uyg'unlikda singishi lozim. Ana shu dunyoqarash shakllangandan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy, siyosiy, axloqiy madaniyat shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish zaruriyati tug'iladi.

Avvalo yoshlarning ahloqiy fazilatlarini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar va milliy qadriyatlar to'g'risida asosli ma'lumotlarni yetkazish va

¹ <https://yuz.uz/news/yoshlar-ortasida-jinoyatchilikni-oldini-olish>

ularning kundalik vaqtlarini nazorat qilish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish muhim hisoblanadi.

Shunga ko'ra, mamlakatimizda yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha besh muhim tashabbus doirasida rejali ishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin, yoshlar va ularning kundalik faoliyatini nazorat qilishda ayrim kamchiliklar vujudga kelayotganligi oqibatida huquqbuzarliklar sodir etilayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Avvalo nazorat oiladan boshlanishi lozim, ota-ona tomonidan farzandining kundalik tartiblarini nazorat qilinishi, to'g'ri maslahatlar berilishi, kelajak uchun qayg'urish hissini vujudga keltirishi, huquqiy madaniyatini shakllantirishi juda ham muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda ushbu funksiyalar ota-onalar tomonidan amalga oshirilmasligi natijasida ushbu funksiyalar davlat idoralari zimmasiga yuklatilmoqda, natijada ortiqcha yuklamalar ko'paymoqda va turli yondashuvlarga sabab bo'lmoqda.

Bu jarayonda ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda mas'uliyatni o'z zimmalariga olishi muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy dunyoqarash, bilim va ko'nikmaga ega yoshlarning bilimlarini va ko'nikmalarini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida ularni tadbirkorlikka jalb etish choralari, turli kasblarga o'rgatish bo'yicha keng ko'lamda islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yoshlarning tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qish uchun ular uchun ajratiladigan xarajatlari qoplab beriladi. Yoshlarning avtomaktabda o'qish xarajatlari BHMning 4 baravarigacha qismi qoplab beriladi. Professional ta'lim

tashkilotlarida tahsil olayotgan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga ular ishlab-chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish korxonalarida amaliyot o‘tagan vaqtida, biroq olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda professional ta‘lim tashkilotlari tomonidan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida har oylik subsidiya ajratiladi.

Yosh tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan yoshlar o‘z faoliyatini olib borayotgan joyning yillik ijara to‘lovining 30 foizi qoplab beriladi².

Mehnat kodeksida yoshlar uchun alohida kafolatlar belgilangan, jumladan 16 dan 18 yoshgacha bo‘lganlar uchun ish vaqti haftasiga 36 soatdan, 15 dan 16 yoshgacha bo‘lganlar uchun esa haftasiga 24 soatdan oshmasligi lozim.

Bugungi kunda yoshlarni chet tili o‘rganishga bo‘lgan intilishlari rag‘batlantirilib, xususiy markazlarda til o‘rganish xarajatlariga subsidiyalar ajratilmoqda.

Muddatli harbiy xizmatni o‘tagan va kontrakt bo‘yicha o‘qiyotgan ijtimoiy faol talabalarga kontrakt summasining 35 foizi to‘lab beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2021-yildagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son Farmoni muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, yoshlarni o‘z iqtidorlarini kashf qilishi va rivojlantirish uchun juda ko‘plab tanlovlar, tadbirlar tashkil etilmoqda hamda xalqaro va mahalliy grantlar ajratilmoqda.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, ushbu imtiyozlardan va imkoniyatlardan yoshlarning foydalanishida biz ota-onalarning mas‘uliyati qay darajada bo‘lishi kerak.

Bola – ota-onasi huzuridagi bir meva, gavhar. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, tarbiyali farzand bo‘lib kamol topadi. Uning natijasi ota-onasi va murabbiyi

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2021 yildagi PF-6208-son Farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/5382151>)

mehnatida namoyon bo'ladi. Agar yomonlikka odatlantirilsa, tarbiyasiz o'sadi. Tadqiqotlardan jinoyat ko'chasiga kirganlar, bolaligida tarbiya ko'rmagan va noqobil oila muhitida o'sgani ma'lum bo'lmoqda.

Oilada bola tarbiyasiga yoshlikdan singdirilgan sifatlarning ahamiyati muhim. Shu o'rinda: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan hikmatni eslab o'tish joizdir. Ota-ona shaxsi, ularning hayot tarzi va obro'- e'tibori bola tarbiyasiga ta'sir etadi.

Demak, ota-onalar farzandiga to'g'ri ta'lim-tarbiya bermog'i lozim. Uni yomon bolalardan saqlashi kerak. Turli salbiy narsalarga qiziqishga odatlantirmasligi, ularni zeb-ziynatga ruju qo'yishga havaslantirmasligi lozim.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur tomonidan ham farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas.

Davlatning qudrati sog'lom fikrli, bilimli, ahloq –odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun jonini tikkan insonlar qo'lida. Bunday insonlar ilk bor oilada tarbiyalanadilar. Bolalarning hulq atvoridagi xatolar ota-onalarning xatolaridir, deb ta'kidlanadi.

Ota-onaning ahloqiy-ma'naviy yetukligi farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur va muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oila bolalarni kelajakdagi hayotga tayyorlovchi maktabdir.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi oila kodeksida bola manfaatlarini eng yaxshi tarzda ta'minlash prinsipi ham hisobga olingan. Buning uchun ota-onalarga tegishli huquqlar, shu jumladan o'z farzandini shaxsan tarbiyalash huquqi berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanligi belgilangan. Lekin ayrim ota-onalarni bolalar tarbiyasiga ma'suliyat bilan qarayapti deb bo'lmaydi. Sir emaski, ko'pchilik ota-onalar oilaviy tarbiya ishining o'ziga xos usullaridan samarali foydalanishga e'tibor bermaydi yoki bilmaydi.

Farzand tarbiyasi oiladagi sogʻlom muhitga, hurmat va totuvlikka, ota-onaning bilim saviyasiga, dunyoqarashiga va shu kabi juda koʻp narsalarga bogʻliq. Oilalarning bola tarbiyasidagi tajribalarini kuzatish va oʻrganishlarga tayanib oila tarbiyasida yoʻl qoʻyilayotgan xatolarning sababi haqida qoʻyidagilarni aytish mumkin.

Birinchiidan, ota-onalarning farzandlarini tarbiyasida ularga yaxshi tarbiya berish niyatida boʻlsalar ham lekin bu ishning oʻziga xos qonuniyatlarini bilmaydilar.

Ikkinchiidan, ayrim ota-onalar bola tarbiyasidagi oʻz burch va masʼulyatlarini toʻla anglamaydilar.

Uchinchiidan, ota-onalarning farzandlari taʼlim olishi va tarbiyasi uchun boshqa sohalarga nisbatan sarmoya kiritishi juda ham sust darajada.

Toʻrtinchiidan, ota-ona va farzand oʻrtasidagi munosabat. Biz har doim ham farzandimiz bilan gaplashishga vaqt topolmasligimiz. Lekin birgalikda maʼlum bir mashgʻulotni qilish orqali oʻrtadagi munosabatni oʻrnatamiz.

Beshinchiidan, oilada huquqiy bilimlarni oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarning yetarli emasligi.

Taʼkidlash lozimki, yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zamon talabi boʻlib kelmoqda. Zero, dunyodagi zoʻravon, tajovuzkor kuchlar bugun niyatlari hamda maqsadlarini emas, balki harakat uslublarini oʻzgartirdilar. Ularning nishoni bugun oila va millat qadriyatlari, tarixi, madaniyati, axloqi, maʼnaviyatidir.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev yoshlar tarbiyasi butun millat oldidagi ulkan masʼuliyatli vazifa ekanligini taʼkidlab: “Agar farzandimizga toʻgʻri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh boʻlib turmasak, ularni ilmu hunarga oʻrgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qoʻyishimiz hech gap emas”, deya takidlaydilar. Oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Chunki bola tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligining oʻzi murakkab jarayon boʻlib, bunda muallimlardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar,

kasaba uyushmalari ishtirok etadilar. Ota-onalar tomonidan o'z farzandi shaxsining noto'g'ri baholanishi va noto'g'ri idrok etilishi, unga nisbatan o'ylamasdan harakat qilish, shuningdek, ota-onaning xulq-atvori bolalardagi ko'pchilik og'ishlarning sababi hisoblanadi.

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishda bugungi kun yoshlarining bir kunlik vaqtini to'g'ri taqsimlash lozim, ya'ni o'quv va darsdan tashqari vaqtini aniqlash va shu asosda ta'limdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish choralari kerak. Ota-ona, ustoz har bir huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oqibati, jazo muqarraligi, ularni oldini olish choralari yuzasidan tushuntirishlar olib borishi lozim.

Yoshlarni bo'sh vaqtlarini ular uchun yoqimli va kelajagi uchun foydali bo'lgan mashg'ulotlar bilan band qilinishi, sport musobaqalari, davra suhbatlari, treninglar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish uchun yaratilayotgan sharoitlarni mohiyatini yetkazishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Shavkat Mirziyoev. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. – T.: O'zbekiston, 2017
3. Sh.M.Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent : O'zbekiston, 2017. .
4. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992
5. Mo'minova X. “Yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirish” Xalq ta'limi 2003 yil № 1.
6. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. Ma'naviyat. 2007.
7. A.Allayarov, G'.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020.
8. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma'naviyat”, 2003.
9. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003.